

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
PREZIDENTI HUZURIDAGI  
STATISTIKA AGENTLIGI



## O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI AHOLISINING UMUMIY DAROMADLARI



**2024- YILNING  
YANVAR-SENTABR  
OYLARI BO'YICHA  
DASTLABKI  
MA'LUMOTLAR**

## Aholining umumiy daromadlari

(2024-yilning yanvar-sentabr oylari bo'yicha dastlabki ma'lumotlar)

**Aholining umumiy daromadlari** doimiy yoki takrorlanuvchi xususiyatga ega bo'lgan, yillik yoki undan kam vaqt oralig'idagi davrda, uy xo'jaligi yoki uning alohida a'zolariga tushadigan pul va natura shaklidagi tushumlardan tashkil topadi.



Aholining umumiy  
daromadlari

**644,1**  
trln so'm



Aholining umumiy  
daromadlari nominal  
o'sish sur'ati  
**117,9 %**



Aholining umumiy  
daromadlari real  
o'sish sur'ati  
**107,7 %**

Aholi umumiy daromadlarini hisoblash – Milliy hisoblar tizimining xalqaro statistika standartlariga, Xalqaro mehnat tashkilotining tavsiyalariga, O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlariga asoslangan Statistika agentligi tomonidan ishlab chiqilgan metodik qo'llanma asosida amalga oshiriladi.

Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha, 2024-yilning yanvar-sentabr holatiga ko'ra, aholining umumiy daromadlari **644,1** trln so'mni tashkil etdi<sup>1</sup>.

Aholi daromadlari bo'yicha real o'sish sur'atlarini hisoblashda narx omillari ta'sirini chiqarib tashlash maqsadida, inflyatsiya ko'rsatkichlarining asosiy turlaridan biri – iste'mol narxlari indeksi (INI)dan foydalaniladi. Iste'mol narxlarining o'zgarishi sababli o'tgan yilning mos davriga nisbatan aholi umumiy daromadlarining real o'sish sur'ati **107,7 %** ni tashkil etdi.

<sup>1</sup> Aholi umumiy daromadlari tarkibidagi mustaqil ravishda band bo'lishdan olingan daromadlar norasmiy iqtisodiyotni hisobga olgan holda qayta baholandi.

## Aholi jon boshiga umumiy daromadlar

(2024-yilning yanvar-sentabr oylari bo'yicha dastlabki ma'lumotlar)




Aholi umumiy daromadlarini hisoblashda Statistika agentligi hisobotlari ma'lumotlaridan, shuningdek, muntazam ravishda statistika organlari tomonidan o'tkazib boriladigan yakka tartibdagi tadbirkorlar va dehqon xo'jaliklarining iqtisodiy faoliyati bo'yicha hamda uy xo'jaliklari tanlanma kuzatuv ma'lumotlaridan, bundan tashqari Iqtisodiyot va moliya vazirligi, Budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi, Markaziy Bank, Xalq Banki, Soliq qo'mitasi tomonidan aholiga hisoblangan daromadlar, ijtimoiy to'lovlar va soliq to'lovlari to'g'risidagi umumlashgan ma'lumotlardan foydalaniladi.

**Ma'lumot uchun:** Aholi umumiy daromadlarini hisoblashda Statistika agentligining "Aholining umumiy daromadlarini hisoblash bo'yicha uslubiy nizomni tasdiqlash to'g'risida" 2024-yil 28-maydagi 118-son qarori asos bo'ladi. <https://lib.stat.uz>

2024-yilning yanvar-sentabr oylarida, aholi jon boshiga umumiy daromadlar hajmida Toshkent shahrida (**40 134,6** ming so'm) hamda Navoiy (**27 550,4** ming so'm), Buxoro (**20 129,7** ming so'm) va Toshkent (**17 854,3** ming so'm) viloyatlarida o'rtacha respublika darajasidan yuqori ko'rsatkichlar qayd etilganligi kuzatildi.

## Ў hududlar bo'yicha aholi jon boshiga umumiy daromadlar hajmi (2024-yilning yanvar-sentabr oylari bo'yicha, ming so'm)



2024-yilning yanvar-sentabr oylarida, aholi jon boshiga umumiy daromadlar hajmining eng quyi ko'rsatkichlari Qoraqalpog'iston Respublikasida (12 083,7 ming so'm), Namangan (12 800,6 ming so'm) va Surxondaryo (13 190,8 ming so'm) viloyatlarida qayd etildi.

**Aholining real umumiy daromadlari** – aholining nominal umumiy daromadlarini tegishli davr uchun iste'mol narxlari indeksiga bo'lish yo'li bilan hisoblanadi.

Real o'sish sur'atlari<sup>1</sup>

2024-yil  
yanvar-sentabr

105,5 %

102,1 %

2023-yil  
yanvar-sentabr

2024-yilning yanvar-sentabr holatiga ko'ra aholi jon boshiga umumiy daromadlarning real o'sishi **105,5 %** ni tashkil etdi. Xuddi shu ko'rsatkich 2023-yilning yanvar-sentabr holatiga **102,1 %** ni tashkil etgan.

## Hududlar bo'yicha aholi jon boshiga umumiy daromadlarning real o'sish sur'atlari, 2024-yilning yanvar-sentabr holatiga, % da

Qoraqalpog'iston Resp.	103,7
Andijon	107,6
Buxoro	103,1
Jizzax	103,1
Qashqadaryo	104,0
Navoiy	106,4
Namangan	102,2
Samarqand	106,5
Surxondaryo	101,5
Sirdaryo	103,8
Toshkent	104,4
Farg'ona	101,3
Xorazm	106,1
Toshkent sh.	110,5

Aholi jon boshiga umumiy daromadlarning eng yuqori real o'sishi Toshkent shahri (**10,5 %**), Andijon (**7,6 %**), Samarqand (**6,5 %**) va Navoiy (**6,4 %**) viloyatlarida kuzatildi.


Shu bilan birga Toshkent (**4,4 %**), Qashqadaryo (**4,0 %**) va Sirdaryo (**3,8 %**) viloyatlari hamda Qoraqalpog'iston Respublikasida (**3,7 %**), Jizzax (**3,1 %**), Buxoro (**3,1 %**), Namangan (**2,2 %**), Surxondaryo (**1,5 %**) va Farg'ona (**1,3 %**) viloyatlari aholi jon boshiga umumiy daromadlarning real o'sish sur'atlari o'rtacha respublika darajasidan past ko'rsatkichni tashkil etdi.

<sup>1</sup>) 2023- yilning yanvar-sentabr oylari uchun aniqlashtirilgan yillik ma'lumotlar asosida qayta hisoblangan. Aholi umumiy daromadlari tarkibidagi mustaqil ravishda band bo'lishdan olingan daromadlar bu yerda va keyingi o'rinlarda 2023-2024 yillarning yanvar-sentabr oylari uchun norasmiy iqtisodiyotni hisobga olgan holda qayta baholandi

## Aholining umumiy daromadlari tarkibi

(2024-yilning yanvar-sentabroylari bo'yicha)

### Birlamchi daromadlar



Aholining umumiy daromadlari hajmini sezilarli darajada o'sishi asosan umumiy daromadlar tarkibida **27,5 %** ulushga ega bo'lgan yollanma ishchilarning daromadlari va **35,3 %** ulushga ega mustaqil ravishda band bo'lishdan olingan daromadlar hamda **26,5 %** ni tashkil etuvchi transfertlardan olingan daromadlarning sezilarli o'zgarishi hisobiga yuzaga kelgan.


Hududlar bo'yicha aholi umumiy daromadlari tarkibida mehnat faoliyatidan olingan daromadlar (yollanib ishlovchilarning ish haqi va mustaqil ravishda band bo'lishdan olingan daromadlar)ning eng yuqori ulushi Navoiy (**78,3 %**), Toshkent (**75,2 %**), Jizzax (**74,4 %**) Sirdaryo (**68,3 %**), Buxoro (**66,2 %**) va Qashqadaryo (**62,9 %**) viloyatlarida kuzatildi. Aksincha, Andijon, Samarqand, Farg'ona va Xorazm viloyatlari o'rtacha respublika darajasidan past ko'rsatkichni tashkil etdi.

**Ma'lumot uchun:** bu yerda va keyingi o'rinlarda shaxsiy iste'mol uchun o'zida ishlab chiqarilgan xizmatlardan olingan daromadlar bo'yicha ma'lumotlar qayta hisoblashlarni "MHT-2008" xalqaro standarti asosida o'z uyida yashash bo'yicha xizmatlar (shartli uy-joy rentasi)ni baholashning yangi metodologiyasi joriy etilishini inobatga olgan holda keltirilgan.

<sup>1</sup> Aholi umumiy daromadlari tarkibidagi mustaqil ravishda band bo'lishdan olingan daromadlar norasmiy iqtisodiyotni hisobga olgan holda qayta baholandi

## Hududlar bo'yicha aholi umumiy daromadlari tarkibi

(2024-yilning yanvar-sentabr oylarida)



## Mehnat faoliyatidan olingan daromadlar




Aholining umumiy daromadlari tarkibida mehnat faoliyatidan olingan daromadlar (yollanma ishchilar va mustaqil ravishda band bo'lishdan olingan daromadlar) sezilarli ulushni tashkil etdi.

### Mehnat faoliyatidan olingan daromadlarning umumiy daromadlar tarkibidagi ulushi<sup>1</sup>, % da



2024-yilning yanvar-sentabr oylari ma'lumotlariga ko'ra, mehnat faoliyatidan olingan daromadlarning umumiy daromadlar tarkibidagi ulushi **62,8 %** ni tashkil etdi.

### Mehnat faoliyatidan olingan daromadlarning nominal o'sish sur'ati<sup>1</sup>, % da




Mehnat faoliyatidan olingan daromadlarning nominal o'sish sur'ati 2023-yilning mos davriga nisbatan **116,2 %** ni tashkil etdi hamda aholi umumiy daromadlari nominal hajmining **10,3 %** ga o'sishini ta'minladi.

<sup>1</sup>) 2023- yilning yanvar-sentabr oylari uchun aniqlashtirilgan yillik ma'lumotlar asosida qayta hisoblangan.



## Yollanma ishchilar daromadlarining o'sish sur'ati<sup>1</sup>, % da




## Aholining umumiy daromadlari tarkibida yollanma ishchilarning daromadlari ulushi<sup>1</sup>, % da



Joriy davrda yollanma ishchilar daromadlarining o'sish sur'ati **117,4 %** ni tashkil etib, aholi umumiy daromadlari nominal hajmining **4,8 %** ga o'sishini ta'minladi.

## Hududlar bo'yicha yollanma ishchilar daromadlarining o'sish sur'ati va ulushi

(2024-yilning yanvar-sentabr holatiga, % da)



Yollanma ishchilar daromadlarining eng yuqori nominal o'sish sur'ati Toshkent shahri (**125,8 %**), Samarqand (**118,2 %**) va Andijon (**116,5 %**) viloyatlarida qayd etildi.

<sup>1</sup>) 2023- yilning yanvar-sentabr oylari uchun aniqlashtirilgan yillik ma'lumotlar asosida qayta hisoblangan.

## Mustaqil ravishda band bo'lishdan olingan daromadlarning o'sish sur'ati<sup>1</sup>, % da

2024-yil  
yanvar-sentabr

115,3 %

116,0 %

2023-yil  
yanvar-sentabr

Joriy davrda mustaqil ravishda band bo'lishdan olingan daromadlarning o'sish sur'ati **115,3 %** ni tashkil etib, aholi umumiy daromadlari nominal hajmining **5,5 %** ga o'sishini ta'minladi.

## Mustaqil ravishda band bo'lishdan olingan daromadlar ulushi<sup>1</sup>, % da

35,3

2024-yil yanvar-sentabr


36,2

2023-yil yanvar-sentabr

2024-yilning yanvar-sentabr oylarida aholining umumiy daromadlari tarkibida mustaqil ravishda band bo'lishdan olingan daromadlar **35,3 %** ni tashkil qildi.

## Hududlar bo'yicha mustaqil ravishda band bo'lishdan olingan daromadlar o'sish sur'ati va ulushi


(2024-yilning yanvar-sentabr oylarida, % da)



Hududlarda mustaqil ravishda band bo'lishdan olingan daromadlarning eng yuqori ulushi Jizzax (**52,3 %**), Buxoro (**46,4 %**), Toshkent (**45,5 %**), Surxondaryo (**44,6 %**) va Qashqadaryo (**44,0 %**) viloyatlarida kuzatildi. Aksincha, Toshkent shahri, Qoraqalpog'iston Respublikasida va Farg'ona viloyatida bu ko'rsatkich o'rtacha respublika darajasidan past bo'lgan.

<sup>1)</sup> 2023- yilning yanvar-sentabr oylari uchun aniqlashtirilgan yillik ma'lumotlar asosida qayta hisoblangan. Aholi umumiy daromadlari tarkibidagi mustaqil ravishda band bo'lishdan olingan daromadlar, 2023-2024 yillarning yanvar-sentabr oylari uchun norasmiy iqtisodiyotni hisobga olgan holda qayta baholandi.


**Mustaqil ravishda band bo'lishdan olingan daromadlar 1 % ga o'sganda aholining umumiy daromadlari hajmi o'sishiga ta'siri, % da**



2024-yil yanvar-sentabr oylarida mustaqil ravishda band bo'lishdan olingan daromadlarning 1 % ga o'sishi umumiy daromadlar hajmining **0,35 %** ga o'sishiga olib keldi.

## Jami mustaqil ravishda band bo'lishdan olingan daromadlarda hududlarning ulushi

(2024-yilning yanvar-sentabr oylari bo'yicha, % da)






# O'zbekiston Respublikasi aholisining umumiy daromadlari


Mustaqil ravishda band bo'lishdan olingan daromadlarning asosiy ulushi Toshkent (**11,0 %**), Samarqand (**11,0 %**), Qashqadaryo (**9,3 %**) va Andijon (**9,3 %**) viloyatlari hissasiga to'g'ri keldi. Kamroq ulushga ega bo'lgan hududlar Sirdaryo viloyati (**2,3 %**), Qoraqalpog'iston Respublikasi (**3,6 %**) va Jizzax viloyati (**5,0 %**) hisoblanadi.

**Mol-mulkdan olingan daromadlar** (mulkiy daromadlar) deganda mulkiy egalik qilish huquqi bo'lgan moliyaviy va nomoliyaviy aktivlarni boshqa shaxslarga foydalanish uchun berishdan uy xo'jaliklariga tushgan tushumlar tushuniladi.

**Mol-mulkdan olingan daromadlarning aholining umumiy daromadlari tarkibidagi ulushi<sup>1</sup>, % da**



**Mol-mulkdan olingan daromadlarning nominal o'sish sur'ati<sup>1</sup>, % da**




Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha, 2024-yilning yanvar-sentabr holatiga ko'ra, mol-mulkdan olingan daromadlar **22,2** trln. so'mni tashkil etdi. Aholining umumiy daromadlari tarkibida mol-mulkdan olingan daromadlar ulushi **3,5 %** ni tashkil etdi. Joriy davrda mol-mulkdan olingan daromadlar aholi umumiy daromadlari hajmining **1,3 %** ga o'sishini ta'minladi.

2024-yilning yanvar-sentabr oylarida mol-mulkdan olingan daromadlar hajmining uchdan ikki qismi Toshkent shahri hissasiga to'g'ri kelib, **63,6 %** ni tashkil etdi. Navoiy viloyati (**5,7 %**) keyingi yuqori ulushga ega bo'lgan hudud hisoblanadi.

<sup>1</sup>) 2023- yilning yanvar-sentabr oylari uchun aniqlashtirilgan yillik ma'lumotlar asosida qayta hisoblangan.

## Mol-mulkdan olingan daromadlar tarkibida hududlarning ulushi (2024-yilning yanvar-sentabr oylari bo'yicha, % da)



## Mol-mulkdan olingan daromadlarning umumiy daromadlar tarkibidagi ulushi (2024-yilning yanvar-sentabr oylarida, % da)




2024-yilning yanvar-sentabr oylarida aholining umumiy daromadlari tarkibida mol-mulkdan olingan daromadlar **3,5 %** ni tashkil qildi.

Hududlarda mol-mulkdan olingan daromadlarning umumiy daromadlar tarkibidagi ulushida Toshkent shahri (**11,5 %**) va Navoiy viloyatida (**4,3 %**) o'rtacha respublika darajasidan yuqori ulush qayd etildi.

**Transfertlar** – uy xo'jaliklariga boshqa uy xo'jaliklaridan, davlat tomonidan, yuridik shaxslardan, chet eldan kelib tushadigan hamda kelgusida qaytarilishi shart bo'lmagan tovarlar, xizmatlar va aktivlardir.

## Transfertlardan olingan daromadlarni o'sish sur'ati va ulushi

(2024-yilning yanvar-sentabr holatiga, % da)




Aholining umumiy daromadlari tarkibida transfertlardan olingan daromadlar ham muhim ahamiyatga ega bo'lib, ushbu daromadlar ijtimoiy transfertlar va boshqa joriy transfertlarni o'z ichiga oladi.

2024-yilning yanvar-sentabr oylari ma'lumotlariga ko'ra, transfertlardan olingan daromadlarning o'tgan yilning mos davriga nisbatan nominal o'sish sur'ati **115,9 %** ni tashkil etdi. Ushbu davrda aholining umumiy daromadlari hajmida transfertlarning ulushi **26,5 %** ni tashkil etdi.

## Transfertlardan olingan daromadlar tarkibi


(2024-yilning yanvar-sentabr oylarida, % da)



2024-yilning yanvar-sentabr oylari dastlabki ma'lumotlariga ko'ra, transfertlardan olingan daromadlarning **36,3 %** ini ijtimoiy transfertlardan olingan daromadlar tashkil qilgan bo'lsa, **63,7 %** ini boshqa joriy transfertlardan olingan daromadlar tashkil qildi.

## Boshqa joriy transfertlar


(2024-yilning yanvar-sentabr holatiga, % da)



Ijtimoiy transfertlar tarkibida pensiyalar eng ko'p ulush – **80,0 %** ni tashkil qilgan bo'lsa, nafaqalar **18,3 %** ni, stipendiyalar **1,7 %** ni tashkil etdi.

2024-yilning yanvar-sentabr oylari bo'yicha aholining umumiy daromadlari tarkibida (boshqa joriy transfertlar tarkibiga kiruvchi) respublika tashqarisidan kelib tushgan pul o'tkazmalarining ulushi **16,9%** ni tashkil etdi.

## Hududlar bo'yicha aholining umumiy daromadlari tarkibida respublika tashqarisidan kelib tushgan pul o'tkazmalari hajmining ulushi (2024-yilning yanvar-sentabr holatiga)



**Boshqa joriy transfertlar** hajmi chet eldan yuborilgan pul o'tkazmalari tarkibidan jismoniy shaxslarning ishlab chiqarish (biznes) faoliyatidan olinadigan daromadlari bilan bog'liq o'tkazmalarini (Markaziy bank va uy xo'jaliklari tanlanma kuzatuvi ma'lumotlari asosida) chiqarib tashlangan holda keltirilgan.

## Aholining umumiy daromadlari tarkibida kichik tadbirkorlikdan olingan daromadlar (2024-yilning yanvar-sentabr holatiga)

2024-yilning yanvar-sentabr oylari dastlabki ma'lumotlariga ko'ra, aholining umumiy daromadlari hajmida kichik tadbirkorlikdan olingan daromadlarning ulushi **58,5 %** ni tashkil etdi.

Hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlikdan olingan daromadlarning ulushi, % da



Kichik tadbirkorlikdan olingan daromadlarning hududiy aholi umumiy daromadlaridagi ulushi turlicha, eng yuqori ulush Jizzax viloyatida (**67,7 %**) kuzatildi. Eng kam ulush esa Toshkent shahrida (**47,8 %**), Navoiy viloyatida (**52,9 %**) va Qoraqalpog'iston Respublikasida (**53,4 %**) qayd etildi.



## Statistik ko'rsatkichlarga izohlar

**Aholi birlamchi daromadlari** ishlab chiqarishdan olingan daromadlar va mol-mulkdan olingan daromadlardan tashkil topadi.

**Ishlab chiqarishdan olingan daromadlarga** mehnat faoliyatidan olingan daromad va shaxsiy iste'mol uchun ishlab chiqarilgan shaxsiy xizmatlardan olingan daromadlar kiradi.

**Mehnat faoliyatidan olingan daromad** yollanma ishchilarning va mustaqil ravishda band bo'lgan aholining daromadidan tarkib topadi.

**Mustaqil ravishda band bo'lishdan olingan daromad** – mustaqil ravishda tashkillashtirilgan va uy xo'jaligi a'zolari jalb qilingan mehnat jarayoni natijasida olingan daromadlar.

**Shaxsiy iste'mol uchun o'zida ishlab chiqarilgan xizmatlardan olingan daromadlarga** bozor uchun mo'ljallanmagan va uy-joy egalari tomonidan foydalanilayotgan turar-joy xizmatlarining shartli ravishda hisoblangan qiymati kiradi.

**Mol-mulkdan olingan daromadlar** (mulkiy daromadlar) deganda mulkiy egalik qilish huquqi bo'lgan moliyaviy va nomoliyaviy aktivlarni boshqa shaxslarga foydalanish uchun berishdan uy xo'jaliklariga tushgan tushumlar tushuniladi.